

**ASHTARXONIYLAR HOKIMIYATINING O'RMATILISHI VA DASTLABKI
ASHTARXONIY HUKMDORLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGI
(1601_1680_YILLAR)**

Nurilloyev Shahriyor Shavkatovich

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti, Tarix ta'lim yo'nalishi, 2-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Buxoro xonligida 1601-1756-yillarda hukmronlik qilgan Ashtarxoniyalar sulolasining taxt tepasiga kelishi va dastlabki hikmdorlar davri haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Ashtarxoniyalar, Joniyalar, Balx, Imomwulixon, Nodir Muhammad, Abdulazizzon, Amudaryo, Shoh Abbos.

Shayboniyalar sulolasidan so'ng deyarli ikki yuz yil mobaynida Movarounnahr taxtini egallab, hukmdorlik qilgan sulola bu - Ashtarxoniyalar sulolasi hisoblanadi.

Ashtarxoniyalar sulolasining Buxoroga kelgunga qadar bo'lgan tarixiga nazar tashlaydigan bo'sak, ilk e'tiborni Qutlug' Temurga qaratishimiz joiz. Jo'ji urug'i shahzodasi Qutlug' Temurning shajarasi farqli manbalarda turlicha keladi. Xususan Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi Turk" kitobiga ishonadigan bo'sak, Qutlug' Temurning shajarasi quyidagicha: Chingizzon, Jo'jixon, To'qol Temur, Abayxon, Tumg'onxon va Qutlug' Temur.¹

Qutlug' Temurxon 1399-yilda Amir Temur ittifoqchisi sifatida To'xtamishxon va Polyak lashkarlariga qarshi Kiiev yaqinida g'alaba qozonadi va anchagina shuhrat qozonadi. Keyinchalik Qutlug' Temurning vorislari Idil bo'yidagi Astraxan viloyatiga ko'chib borishadi va u yerda hokimiyatni o'z qo'llariga olishadi. Astraxanda hukmronlik qilgan Jo'ji avlodlari borib-borib Ashtarxoniyalar (Astraxanliklar) deb nom olishgan.

1556-yilgi Rus davlatining Aatraxanni istilo etishi va tashqi bosimlar Ashtarxoniyalar xonadoni uchun yangi vatan topish ehtiyojini tug'dirgan. Shundan so'ng Ashtarxoniyalar xonadoni boshlig'i Yormuhammadxon va o'g'li (vorisi) Jonixon bilan birga Movarounnahrga ko'chib o'tishadi.

Shu davrda Samarqand hokimi bo'lgan Shayboniy Iskandar sulton Yormuhammad va oilasini juda yaxshi kutib oladi. Bunga sabab: Shayboniyalar o'zlarini Chingizzon avlodidan hisoblashlari va Ashtarxoniyalar (Jo'jixon avlodlarini) o'zlariga yaqin qarindosh deb hisoblashgani edi.

¹ Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarayi Turk" Toshkent – 1992

Iskandar sulton Yormuhammadning o'g'li Jonixonha o'z qizi Zuhrabeginni nikohlab beradi.

Movarounnahrga ko'chib o'tishgach oradan ko'p vaqt o'tmay Yormuhammadxon vafot etadi, o'g'li Jonixon esa Abdullaxonning eng yaqin sarkardalaridan va davlat maslahatchilaridan biriga aylanadi.

Forslarga qarshi mardonavor jasoratlari uchun Jonixonning to'ng'ich o'g'li (Abdullaxonning jiyani) Dinmuhammadga Abdullaxon Nishopur noibligini topshiradi. Abdullaxondan keyin taxtga chiqqan Abdulmo'min Zominda qatl etilgach Movarounnahr taxti egasiz qoladi. Ko'plab davlat arboblarining taxtga o'tirish haqidagi qilgan takliflariga Jonixon "garchi men nasl e'tiborim bilan Chingiziyardan bo'lsm ham, Movarounnahr taxtiga Shayboniylardan bo'lgan kishi loyiqroqdir" deya javob qaytaradi va taxtga o'z o'g'illaridan birini o'tqazishni tavsiya etadi.

Jonixon va Zuhrebeginning katta o'g'li bo'lgan, Nishopur hokimi Dinmuhammad Buxoro hukmdori (xoni) etib saylanadi. Barcha Dinmuhammadning Xurosandan Buxoroga kelishini kutayotgan bir paytda, o'zining ikki ashaddiy dushmani Abdullaxon va Abdulmo'minxonning vafotidan foydalanib Xurosonga joylashib olgan O'zbeklarni batamom quvib chiqarishga qaror qilgan Eron hukmdori Shoh Abbos Dinmuhammadga qarshi jangga chiqadi. Bunday og'ir vaziyatda ulusni tashlab poytaxt tomon borishning imkonini yo'q edi. Dinmuhammad Xurosondagi (Hirot yaqinida) Shoh Abbosga qarshi kurashlar vaqtida vafot etadi. Uning o'limi haqida "Ravzat us-safo" va "Tarixi Muqumxoniy"da har xil ma'lumotlar uchraydi, lekin shunisi aniqlik Dinmuhammad Buxoro kelmay turib Xuroson viloyatida vafot etadi.

Dinmuhammad vafotidan keyin Jonixonning ikkinchi o'g'li Boqimuhamed Buxoro taxtiga chiqadi. Jonixonning kenja farzandi, Buxoro xoni Dinmuhammadning ukasi Valimuhammad esa Balx viloyatiga noib etib tayinlanadi.

Abdulmo'min ham vafot etgan Hirot jangida Hirot va boshqa ko'plab yirik shaharlar Safaviylar nazoratiga o'tadi. Ham ichki muammolar, ham shimoli-g'arbdan tahdid solib turgan Usmonli Turklar bilan ovvora bo'lib qolgan Safaviy hukmdorlari Hirotni olgach Balx va boshqa shaharlarga unchalik katta e'tibor qaratmaydilar. Nomigagina Balxda noiblik qilayotgan Muhammad Ibrohim ham tezda Balx aholisi tomonidan qatl etiladi. Shundan keyin Valimuhammad Balx shahrining haqiqiy hokimiga aylanadi va Somoniylar davridan buyon Buxoro uchun katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan Balx, Badaxshon, Qunduz, Oqchi, Shibirg'on, Andxund kabi shaharlar Ashtarkoniylar tasarrufiga o'tadi.

1605-yilda Boqimuhamed kasallik sabab vafot etgach Valimuhammad taxtga o'tiradi. Valimuhammad hukmronligi davridagi Balx va Movarounnahrdagi ko'plab zolimliklar, vazirlar va viloyat hokimlarining o'zboshimcha olib borgan xunrezliklari hukmdorga qarshi kuchli muxolifat paydo bo'lishiga olib keldi. Ko'p o'tmay muxolif kuchlar Buxoro taxtiga Imomqulixonni o'tqazdilar, Qarshi yaqinida ovda bo'lgan

Valimuhammad bu xabarni eshitib Eronga, azaliy dushmani Abbas Safaviy saroyiga qochib qoladi.

Ashtarxoniyarlarning bunday ichki bo'linishidan foydalanib qolishga uringan Shoh Abbas Valimuhammadni katta ehtirom bilan Eronda kutib oladi.

Tarixchi German Vamberining yozishicha: "Shoh Abbas Valimuhammadni Isfaxonda o'zi kutib oladi va poytaxtgacha bo'lgan uch soatlik masofada Valimuhammadning yonida boradi. Ular o'tgan barcha yo'llar bayramona bezatilib, qimmatbaho gilamlar to'shaladi. Yo'l bo'yida yigirma mingcha mushakbozlar saf tortib turishadi."

Valimuhammad Erondan katta qo'shin olib (ayrim manbalarda ularning soni 8 ming deyiladi) Movarounnahr sari yurish boshlaydi. Imomqulixon avvalboshda piytaxtni ham topshirib qo'yadi, lekin 1611-yildagi hal qiluvchi jangda Valimuhammadni yengadi.

Boqimuhamed vafotidan beri uzluksiz Movarounnahrning shimoliy hududlariga talonchilik urushlari olib borgan Qozoq qabilalari 1612-yilda Samarqandni ham talon-taroj qilishadi. Bunga qarshi Imomqulixon Qozoqlarga qarshi ko'plab janglar olib boradi va ularni Turkiston hududidan chiqarib tashlaydi. Bunday talon-tarojlar qaytarilmasligi uchun Qozoqlar bilan chegara hududi bo'lgan Toshkent viloyatiga o'z o'g'li Iskandar sultonni noib etib tayinlaydi. Iskandar sulton Toshkentda isyonchilar tomonidan o'ldirilgach Imomqulixon Toshkentga qo'shin tortadi. Shu voqealardan keyin mudhish Toshkentning qonga botirilish voqeasi sodir bo'ladi.

Toshkent voqeasidan keyin Imomqulixonning 32 yillik hukmdorlik davri ancha sokin o'tadi. Xon asosiy vaqtini ilm majlislarida, shoirlar davrasida va darvesh libosi bilan oddiy xalq orasida, bozor va guzarlarda o'tqazadi.

Imomqulixon 1640-yilda kasallanadi va umrining oxirgi kunlarini Hajda o'tqazishga qaror qiladi. 1642-yilda ukasi Nodir Muhammadga taxtni topshiradi va Haj safariga jo'nab ketadi va shu yerda vafot etadi. Vamberining yozishicha: Makka shahrida Imomqulixon tashabbusi bilan bog' va hammom quriladi.²

Nodir Muhammad 1643-yilda taxtga o'tiradi. Imomqulixon kabi ham harbiy muvaffaqiyat bilan xalq mehrini qozonmoqchi bo'lib Xiva tomon qo'shin yuboradi. Bu harbiy yurish muvaffaqiyatsizlikka uchrashi barobarida shimol hududlarida katta isyonlar boshlanadi. Shimolni tinchlantirish uchun o'g'li Abdulazizni katta qo'shin bilan yuboradi, biroq Abdulaziz muxolifatchilar tomoniga o'tib o'zini xon deb e'lon qiladi. Bu xabarni eshitgan Nodir Muhammad Balxga chekinadi. Itoatsiz o'g'illariga qarshi kurashish uchun Hindiston shohi Shohjahonga yordam so'rab murojaat qilgan Nodir Muhammadning talabi qondiriladi. Shohjahon ikki o'g'li Avrangzeb va Murodbaxshni kata qo'shin bilan Balx tomon yuboradi. Yo'l-yo'lakay Nodir

² Herman Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" Toshkent - 2019

Muhammadning o'g'li Xusravni asir olib Hindistonga yuborgan Avrangzeb va Murodbaxshning do'stona maqsadda kelmayotganini sezgan Nodir Muhammad Eron shohi Abbos ikkinchi huzuriga ketadi. Katta qo'shin bilan Balxga qaytgan Nodir Muhammad bu yerdagi ahvolni va o'g'illarining ochiq dushmanligini ko'rib haj safariga yo'l oladi, biroq u safar chog'ida vafot etadi.

Nodir Muhammad vafotidan so'ng Buxoro xoni Abdulazizzon ukasi Subhonqulixonni Balx hokimi va taxt vorisi etib tayinlaydi.

Abdulazizzon hukmronligi yillarida Xivada mohir sarkarda Abulg'oziy Bahodirxon xon edi. Abulg'oziy Bahodirxon Xiva tinchligini saqlash va quyi Amudaryoni Buxoro xonligidan ozod etish uchun Buxoroga bir necha bor yurish qiladi.

Abdulazizzon otasi va ukalariga qarshi o'ta shafqatsizsiyosat olib borgan esa ham, boshqa masalalarda ko'plab tarixchilar uning ishlarini ma'qullaydilar. Aynan Abdulazizzon davri bilan Ashtarxoniyarning Buxoro xonligidagi dastlabki hukmronlik davri o'z nihoyasiga yetadi. Abdulazizzondan keyin taxtga kelgan vorislari davrida Buxoro juda ko'p marta tashqi kuchlar va ichki isyonlar oqibatida anchagina zaiflashib qoladi.

Foydalaniqan adabiyotlar

1. Akbar Zamonov "Buxoro xonligi tarixi" Tishkent - 2021
2. Qahramon Rajabov, Sulaymon Inoyatov "Buxoro tarixi" Toshkent - 2016
3. O'zbekiston xalqlari tarixi, 2-t., T., 1994.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000 yil
5. Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarayi Turk" Toshkent – 1992
6. Anvar Erqo'ziyev "Buxoro xonligi tarixi" Namangan - 2018
7. Herman Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" Toshkent - 2019